

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARINI RIVOJLANTIRISH - YANGI O'ZBEKISTON TIMSOLIDA

*Toshkent shahar Shayxontohur tumani
Maktabgacha va maktab ta'lim bo'limi
tasarrufidagi 321 - sonli
Ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan Davlat
maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi
Mirzayeva Mukambar Muhammadjon qizi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Maktabgacha ta'lim muassasasi uzluksiz ta'lim tizimining birinchi bosqichi, jamiyatning eng muhim ijtimoiy zamini ekanligi haqida tahliliy ish olib borilgan. Yangi O'zbekistonni bunyod etishda yosh avlod tarbiyasi muhim ekanligi mavzuda yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Harakatlar strategiyasi, pedagogika, ilmiy-tadqiqod metodlari, davolash-profilaktika, Yo'l xaritasi, Konsepsiya.*

Annotation: *This article analyzes the fact that the first stage of the system of continuing education in preschool education is the most important social ground in society. The importance of educating the younger generation in building a new Uzbekistan is highlighted.*

Keywords: *Action Strategy, Pedagogy, Research Methods, Treatment and Prevention, Roadmap, Concept.*

Аннотация: *В данной статье анализируется тот факт, что первая ступень системы непрерывного образования в дошкольном образовании является важнейшей социальной площадкой в обществе. Подчеркнута важность воспитания подрастающего поколения в строительстве нового Узбекистана.*

Ключевые слова: *стратегия действий, педагогика, методы исследования, лечение и профилактика, дорожная карта, концепция. Mamlakatimizda ta'lim tizimiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratiimoqda.*

O'zbekiston Respublikasining 2017-2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasida maktabgacha ta'lim tizimini qayta ko'rib chiqish va uni yanada takomillashtirish vazifalari amalga oshirildi. Bu muammolarni to'laqonli hal etishda o'qituvchi-pedagogning intellektual salohiyati va kasbiy mahorati muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan ham amalga oshirilayotgan ishlarni pedagogik tahlil qilish, ta'lim-tarbiyaviy jarayonlarining samarali kechishini ta'minlash zaruriyati yuzaga keldi. Bu talablar pedagogika oliy o'quv yurtlarining maktabgacha ta'lim yo'nalishi bo'yicha malakali kadrlar tayyorlashga ham taalluqli bo'lib, bu ixtisos beradigan fanlarning nazariy jihatdan yanada takomillashtirishni taqozo etadi.

“Maktabgacha pedagogika” fani bo'yicha tayyorlangan ushbu darslikda ana shu nazariy-metodologik asoslarga tayanilgan holda asosiy e'tibor - maktabgacha

pedagogikaning umumiy asoslari, uning ilmiy-tadqiqod metodlari, maqsad va vazifalari, maktabgacha ta'lim didaktikasi, O'zbekistonda maktabgacha ta'limning vujudga kelishi, rivojlanishining asosiy bosqichlari, ta'lim sohasi bo'yicha qabul qilingan huquqiy-me'yoriy qonun hujjatlari, maktabgacha yoshdagi bolalarni har tamonlama tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlar, shakl va usullari, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashning nazariy asoslari, oila, maktab va maktabgacha ta'lim muassasasi o'rtasidagi hamkorlik aloqalari, turli xil maktabgacha ta'lim muassasalari ishini tashkil etish, ularga rahbarlik qilish va maktabgacha ta'lim tizimi tomonidan nazorat qilish kabi masalalar tahliliga qaratilgan Maktabgacha ta'lim muassasasi uzluksiz ta'lim tizimining birinchi bosqichi, jamiyatning eng muhim ijtimoiy zaminidir. Maktabgacha ta'lim muassasi bolalarni tarbiyalash va rivojlantirish, ularni maktabga tayyorlashda yetakchi o'rin tutadi.

Barcha turdagi maktabgacha ta'lim muassasalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017 - 2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida"gi 2016-yil 29-dekabrda PQ-2707-son qaroriga muvofiq Vazirlar Mahkamasi qarori asosida tashkil etiladi. Davlat maktabgacha ta'lim muassasasida ta'lim mazmuni maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablariga asosan ishlab chiqilib, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan yoki tavsiya qilingan dasturlar bilan belgilanadi. Davlat maktabgacha ta'lim muassasasining ish tartibi va bolalarning ushbu muassasada bo'lish vaqti davlat maktabgacha ta'lim muassasasining ustavi va muassisning qarori bilan belgilanadi. Davlat maktabgacha ta'lim muassasasida besh kunlik ish haftasi uchun, qoida tariqasida, quyidagi ish tartibi joriy etiladi: 12 soatli; 10,5 soatli; 9 soatli; 4 soatli.

Davlat maktabgacha ta'lim muassasasi joylashgan hududda yashaydigan aholi talablaridan kelib chiqib, davlat maktabgacha ta'lim muassasasida yoki uning alohida guruhlarida 6 kunlik ish haftasi ham joriy etilishi mumkin.

Davlat maktabgacha ta'lim muassasasida ovqatlanishni tashkil etish ushbu muassasa zimmasiga yuklatiladi hamda sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga muvofiq amalga oshiriladi. Bolalarga tibbiy xizmat ko'rsatish davlat maktabgacha ta'lim muassasasining tibbiyot xodimlari va ushbu muassasaga belgilangan tartibda birlashtirilgan hududiy sog'liqni saqlash organlarining tibbiyot xodimlari tomonidan amalga oshiriladi. Tibbiyot xodimlari davlat maktabgacha ta'lim muassasasi xodimlari bilan birgalikda bolalarning hayoti, sog'lig'i va jismoniy rivojlanishi, davolash-profilaktika tadbirlari o'tkazilishi, sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga, ovqatlanish rejimi va sifatiga rioya qilinish uchun mas'uldirlar. Davlat maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning hayotini muhofaza qilish va sog'lig'ini mustahkamlashni tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi va Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadi. Davlat maktabgacha ta'lim muassasasining tibbiyot xodimlari faoliyatini nazorat qilish hududiy sog'liqni saqlash organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat maktabgacha ta'lim muassasasi rahbariyati tomonidan tibbiyot xodimining faoliyat olib borishi uchun zarur shart-sharoitlar (alohida xizmat xonasi, mebel va tibbiy jihozlar, birinchi tibbiy yordam ko'rsatish uchun zarur bo'lgan dori-darmonlar) yaratib beriladi. Davlat maktabgacha ta'lim muassasasi tibbiyot xodimlarining malakasini oshirish sog'liqni saqlash tizimidagi malaka oshirish muassasalarida har uch yilda kamida bir marta bepul amalga oshiriladi.

O'tgan davr mobaynida mamlakatimizda o'sib borayotgan avlodni sog'lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta'limning samarali tizimini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamlı ishlar amalga oshirildi.

Maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlar nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari sonini yanada oshirish va ular ko'rsatadigan xizmatlar turlarini kengaytirish uchun mustahkam poydevor bo'ldi. Shu bilan birga, olib borilgan tahlil, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrovini ta'minlash, maktabgacha ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv-metodik materiallar va badiiy adabiyotlar bilan to'ldirish, sohaga malakali pedagog va boshqaruv kadrlarini jalb qilish masalalarini hal etish zarurligini ko'rsatmoqda. Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'limdan teng foydalanishini ta'minlash, maktabgacha ta'lim xizmatlarining nodavlat sektorini rivojlantirish maqsadida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3955-son qaroriga muvofiq: Quyidagilar, O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi quyidagilarni nazarda tutgan holda Konsepsiyaning asosiy yo'nalishlari hisoblanadi: maktabgacha ta'lim sohasidagi normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish; maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish; bolalarning sifatli maktabgacha ta'lim bilan qamrovini oshirish, undan teng foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash, mazkur sohada davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish; maktabgacha ta'lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish; maktabgacha ta'limni boshqarish tizimini takomillashtirish, maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini moliyalashtirish shaffofligi va samaradorligini ta'minlash; maktabgacha ta'lim tizimiga maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, tanlab olish va rivojlantirishga mutlaqo yangi yondashuvlarni joriy etish; maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning sog'lom va balanslashtirilgan ovqatlanishini, sifatli tibbiy parvarishini ta'minlash. Hujjat erishilgan natijalar, maqsadli ko'rsatkichlar va tegishli davrga (2019–2024-yil. va 2025–2030-yil.) mo'ljallangan asosiy yo'nalishlardan kelib chiqqan holda har yili tasdiqlanadigan alohida "Yo'l xaritasi" asosida bosqichmabosqich amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'lim vazirligi har yili 1-dekabrga qadar keyingi yil uchun "Yo'l xaritasi"ni ishlab chiqib, Vazirlar Mahkamasiga kiritadi va ularning bajarilishi ustidan doimiy monitoring olib

boradi. Hujjat bilan rejalashtirilgan tadbirlarni moliyalashtirish manbalari belgilangan va ularni bajarish yuzasidan shaxsiy javobgarlik yuklangan. Ushbu Konsepsiyaning maqsadi bola hayoti va faoliyatining barcha sohalarini rivojlantirishni ta'minlovchi muhim manba bo'lgan sifatli maktabgacha ta'limdan foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "Noyob Huquqlar bola huquqlari haqidagi Konventsiyani o'rganish bo'yicha amaliy qo'llanma\ UNICEF, NEW-YORK-1993
2. Otavaliyeva O'. Bola tarbiyasida bog'cha va oila hamkorligi. T.: O'qituvchi, 1994.
3. Hasanboyeva O., Tadjieva M., Toshpulatova Sh. va boshq. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. T.: Ilm-ziyo, 2012.
4. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari. T., 2018.
5. O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida"gi qonun. T., 2008.
6. O'zbekiston Respublikasi davlat maktabgacha ta'lim muassasasi to'g'risidagi Nizom. T., 2017
7. Nazirovich, A. U. (2022). TURIZMGA OID ATAMALARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI. Conferencea, 256-258.
8. qizi Tojiboyeva, M. S., & Pakirdinova, S. A. (2022). KONSEPT-TIL VA MADANIYAT OLAM MANZARASINI IFODALOVCHI VOSITA. Educational Research in Universal Sciences, 1(6), 290-293.
9. Tojiboyeva, M. S. Q. (2022). SEMANTIC DIVISION OF TOURISM TERMINOLOGY. Scientific progress, 3(6), 116-119.
10. qizi Tojiboyeva, M. S., & Kuchqorova, M. Y. (2023). PHRASEOLOGICAL UNITS DENOTING THE CONCEPT OF WISDOM. GOLDEN BRAIN, 1(6), 52-55.
11. Tojiboyeva, M. S. Q. (2022). SEMANTIC DIVISION OF TOURISM TERMINOLOGY. Scientific progress, 3(6), 116-119.